



Maxammatov Otabek Saydaaliyevich,
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
HBT va MOM o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: maxammatov-o@mail.ru

VIRTUAL MAKONDA YOSHLARNING IJTIMOIY XAVFSIZLIGI

Annotatsiya. Maqolada XXI asr tezkor axborotlar almashinuvi sifatida uning turli ko'rinishlari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqaro biznesning taraqqiyoti, media ta'limning yaxshilanishi bilan birga boshqa ko'plab sohalaridagi jiddiy o'zgarishlar, bu kabi taraqqiyot haqli ravishda global internet mahsuli ekanligi, global axborot olami o'zining ijobiy yutuqlari bilan birgalikda keng axborot iste'molchilari sanalmish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi va madaniyatidagi salbiy o'zgarishlarning avj olishiga sabab bo'layotganiga to'xtalib o'tilgan.

Аннотация. 21 век как быстрый обмен информацией, его различные проявления, развитие цифровой экономики, развитие международного бизнеса, совершенствование медиаобразования и серьезные изменения во многих других сферах, что такое развитие по праву является продуктом глобальной сети Интернет, глобальная информация. Указано, что мир вместе с его позитивными достижениями является причиной нарастания негативных изменений в духовном мировоззрении и культуре так называемой молодежи.

Annotation. In the article, the 21st century as a fast information exchange, its various forms, the development of the digital economy, the development of international business, the improvement of media education, and serious changes in many other areas, that such development is rightfully a product of the global Internet, global information. It is pointed out that the world, together with its positive achievements, is the reason for the increase of negative changes in the spiritual worldview and culture of young people.

Kalit so'zlar: virtual maydon, global axborot olami, kibertajovuz, sun'iy tahdidlar, trolling, media ta'lim, xakerlik, frikerlik.

Ключевые слова: виртуальное пространство, глобальный информационный мир, киберагрессия, искусственные угрозы, троллинг, медиаобразование, хакерство, фрикерство.

Keywords: virtual space, global information world, cyber aggression, artificial threats, trolling, media education, hacking, phreaking.

Kirish. Insoniyatning ilm-fan, xizmat ko'rsatish va odamlar hayotini yaxshilashda erishgan ko'plab yutuqlarida virtual makonning o'rni beqiyos. Virtual makon ko'plab qimmatli va foydali xususiyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan ilm-fanni rivojlantirish, turli sohalardagi bilimlarni oshirish uchun foydalanish, biroq bunday maydonga qadam qo'yish yosh foydalanuvchilarni imkoniyatga ega bo'lmasdan avval xavf ostiga qo'yadi. Hamma foydalanishi mumkin bo'lgan virtual makonning asosiy afzalligi – bu axborotning tez tarqalishidir. Virtual makonning xavf-xatarlaridan biri jamiyatda mavjud birliklar orasidagi masofa bo'lib, virtual makon ijtimoiy birliklar orasidagi masofani oshiradi. Bugun oilalar hayotiga yangi texnologiyalar joriy etilayotgani munosabati bilan ota-onalar va farzandlar soatlab yonma-yon o'tirmasligi ham odat tusiga aylanmoqda.

Asosiy qism. Virtual maydon har qanday joyda va istalgan vaqtda mavjud. Turli xil va son-sanoqsiz aloqa signallariga ega bo'lgan bunday makonning aniq tavsifi internetdir. U yerda butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar virtual ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, chatlar orqali ulanishlari mumkin. Virtual makon (internet) axborot tashkilotlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim o'lehovni taqdim etadi. Virtual makonning vosita sifatida rivojlanishi va uning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borishi undan foydalanish uchun axborot tashkilotlari hamda uning o'lehov birligini aniqlashni talab qilmoqda. “Virtual makon o'ziga xos noyob muhitni taqdim etadi: odamlar va tashkilotlar doimiy ravishda ma'lumot ishlab chiqaradigan, joylashtiradigan, qayta ishlaydigan, yozib oladigan, tashlab yuboradigan, o'zgartiradigan, xotiraga o'tkazadigan, tarqatadigan, kirish va foydalanayotgan muhitni yaratadi. Virtual makonda ma'lumotlarning hamma joyda mavjudligi va foydalanuvchilarning ma'lumotlarga tayanishi tufayli virtual makonning axborotga boy muhitini saqlash va kengaytirish uchun ko'plab tashkilotlar ishlab chiqilgan”.

Virtual makonda axborot (kompyuter) xavfsizligiga tahdidlar bu axborot xavfsizligi holatining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan turli xil harakatlardir. “Agar xavfsizlik tushunchasi ilgari xarbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidi, jumladan, qurollanish poygasini to'xtatish kabi omillarga bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda “noan'anaviy” tahdidlar bilan kurashish birinchi pog'onaga chiqdi. Ya'ni ularning o'rnini axborot va mafkura oqimlarini tahlil qilish egallab bormoqda. Ular orasidan agressiv buzg'unchi axborot va g'oya fantomlarini belgilab olish va o'z vaqtida fosh qilish ta'lim-tarbiya doirasidagi davlat siyosatining muhim bo'g'iniga aylandi”. Boshqacha qilib aytganda, virtual makonda bu mumkin bo'lgan hodisalar, jarayonlar

Virtual maydon har qanday joyda va istalgan vaqtda mavjud. Turli xil va son-sanoqsiz aloqa signallariga ega bo'lgan bunday makonning aniq tavsifi internetdir. U yerda butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar virtual ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, chatlar orqali ulanishlari mumkin.

***Bugungi kunda
internet 2,7
yil ichida 1
milliard yangi
foydalanuvchilar
tezligida ortib
bormoqda. Bu
real olamdagi
voqelikdan ikki
borobar tez
o'sayotganligini
bildiradi.***

yoki harakatlar bo'lib, ular axborot va kompyuter tizimlariga zarar yetkazishi aniqlangan. Tahdidlarni ikki turga bo'lish mumkin: tabiiy va sun'iy tahdidlar. Tabiiy tahdidlarga odamlarga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari, masalan, bo'ronlar, toshqinlar, yong'in va boshqalar kiradi. Sun'iy tahdidlar to'g'ridan-to'g'ri shaxsga bog'liq va qasddan yoki to'satdan bo'lishi mumkin. Tasodifiy tahdidlar beparvolik va jaholatdan kelib chiqadi. Virtual makonda bunday tahdidlarga misol sifatida ishlash uchun zarur bo'lganlar qatoriga kiritilmagan va tizim faoliyatini buzadigan dasturlar o'rnatish, oqibatda ma'lumotlarning yo'qolishini ko'rsatish mumkin. Qasddan qilingan tahdidlar, avvalgisidan farqli o'laroq, ataylab yaratiladi. Bunga jinoyatchilar tomonidan uyushtirilgan tashqi va ichki hujumlar kiradi. Ushbu turdagi tahdidlar natijasida tashkilot mablag'lari va intellektual mulki yo'qoladi.

Internet virtual shaklda uzoq masofani yaqinlashtiradi. Hozirgi kunda bir kunlik internetda ishlab chiqilgan axborotni qayta ishlash uchun bir inson umri yetmaydi. Xalqaro elektron tarmoq ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, birinchi milliard internet foydalanuvchisini topish uchun 16 yil kerak bo'ldi. Tarmoqning ikkinchi milliard foydalanuvchilari esa atigi 6 yilda qo'shildi. Bugungi kunda internet 2,7 yil ichida 1 milliard yangi foydalanuvchilar tezligida ortib bormoqda. Bu real olamdagi voqelikdan ikki borobar tez o'sayotganligini bildiradi.

Garvard universitetida o'tkazilgan tadqiqotda virtual dunyo uchun eng keng tarqalgan uchta tahdid aniqlandi: 1) kibertajovuz; 2) jinsiy shilqimlik; 3) noqonuniy va zararli odatlar (virtual giyohvand moddalarni ommalashtirish, pornografiya, o'z joniga qasd qilish (suitsid) va boshqalar). Nisbatan yangi tahdidlardan biri, bu-kiber tajovuz, o'spirinlarning virtual terroridir. Agar oddiy hayotda kimdir xafa bo'lgan bolaga shafqat qilishi mumkin bo'lsa, unda internetda bu mumkin emas. Tengdoshlari tomonidan tahqirlanishi va tahdidlar bola ruhiyatini jiddiy ravishda shikastlaydi, bunday virtual bezorilikning oqibatlari ayanchlidir. Kiberhujumlarga nafaqat bolalar va o'smirlar duchor bo'lmoqda, balki internet-trolling (targ'ib qiluvchi shov-shuvli xabarlarini yuborish, ishtirokchilar o'rtasidagi nizolar, bir-birini haqorat qilish va h.k.) kattalar auditoriyasiga ham qaratilmoqda. Trolling - virtual axborot urushlarini olib borish usullaridan biridir. O'zlarining shaxsiy manfaatlari uchun shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash orqali foydalanuvchi hayotini buzishi mumkin bo'lgan kiberfiribgarlar soni tobora oshib bormoqda.

Hozirda qishloq va shahar tushunchalari faqatgina maishiy-ijtimoiy turmush tarzi va sharoitlarda keskin farqlanishi mumkin, ammo axborot tarqalishi va iste'molchi sifatida farq deyarli mavjud emas. Bu esa o'z navbatida juda yaxshi fan yutuqlari axborotlar almashinuvi, elektron

hisob-kitob, raqamli iqtisodiyot uchun xizmat qilish bilan birgalikda, katta ijtimoiy muammolarga ham aylanib bormoqda.

Hozirda virtual olam faoliyatida tarqalayotgan salbiy axborotlar hammani o'ylantirayotgan bir vaqtda bunga qo'shimcha bo'lgan xorij va ayrim milliy ommaviy axborot vositalarimiz sanalgan televideniye ko'rsatuvlarida ham yengil, sayoz, kosmopolitik mazmundagi, ommaviy madaniyat mezonlari ufurib turgan, adabiy til mezonlarini buzuvchi, bachkanalikka yo'g'rilgan teleko'rsatuvlar namoyishi kun sayin ortib bormoqda. Mazkur ma'lumotlarning barchasi teleko'rsatuvlar veb saytiga joylashtirilib borilmoqda.

Hozirda axborot media olamini kuzatish natijalari shundan dalolat beradiki, birinchi ko'zga tashlanadigan holat buzg'unchi g'oyalarga yo'g'irilgan, kishilardagi osoyishtalik kayfiyatiga raxna soladigan, axborotlar uzatuviga zo'r berish holatlaridir. Inson ruhiyati shunday xususiyatga egaki, har qanday axborot hali to'liq shakllanmagan, ularning ishonchli yoki buzg'unchi ekanligini o'z ongida tahlil qila olmagan insonda, axborotlar qaysidir ma'noda o'z ta'sir doirasini qoldirish xususiyatiga ega bo'ladi. Axborotlar ta'siriga tushib qolish aksariyat holatlarda balog'at yoshidagilar, yoshlarda ko'proq kuzatiladi.

Globallashuv jarayonlari turli xil madaniyatlarning yaqinlashuvi, mamlakatlararo madaniy aloqalar, tinchlik madaniyatiga erishuv imkoniyatlarini taqdim etishi bilan bir qator muammoli vaziyatlarni keltirib chiqargan. Masalan, ommaviy axborot vositalari va texnologiyalar rivojlanishi ijtimoiy ongda tijorat komponentlari ko'payishi, madaniy sanoat yo'nalishi ochilishi; zamonaviy turmush tarzining o'zgarishi natijasida inson iste'moli parametrlari o'zgarishi, jo'nlashishi, hissiy-gedonistik kayfiyatning kuchayishi; kishilarning ijtimoiy tenglik va adolat haqidagi ideallari, unga intilishlari nafaqat tegishli ijtimoiy jarayonlarda, balki badiiy asarlarning tegishli qismlarida va madaniy imtiyozlarda ham aks ettirilishi; shaxsning ma'naviy borlig'iga nisbatan madaniyatni kompensatorlik (to'ldiruvchi) vazifasining ahamiyatini oshirish, zamonaviy shaxsga muvaffaqiyatli hayot ssenariylari, shuningdek, real hayotda bo'lmagan tajriba va hissiyotlarning virtual variantlarini taklif qilish kabi etikalogik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagi tahlil va tadqiqotlar quyidagi ayrim muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qator takliflar berishga undaydi.

Ya'ni 1) oliy ta'lim tizimida internet axborot psixologik tahdidlarini chuqur o'rganadigan fanlarni kiritish, pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish; 2) bugun axborot texnologiyalar asri sifatida qaralayotganini e'tiborga olib, bu orqali salbiy illatlarning oldini olishda, avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf

Hozirda virtual olam faoliyatida tarqalayotgan salbiy axborotlar hammani o'ylantirayotgan bir vaqtda bunga qo'shimcha bo'lgan xorij va ayrim milliy ommaviy axborot vositalarimiz sanalgan televideniye ko'rsatuvlarida ham yengil, sayoz, kosmopolitik mazmundagi, ommaviy madaniyat mezonlari ufurib turgan, adabiy til mezonlarini buzuvchi, bachkanalikka yo'g'rilgan teleko'rsatuvlar namoyishi kun sayin ortib bormoqda. Mazkur ma'lumotlarning barchasi teleko'rsatuvlar veb saytiga joylashtirilib borilmoqda.

***Ayni damda
ijtimoiy-gumanitar
fan olimlari
ichida eng ko'p
muhokama
qilinadigan
muammo bu
– yoshlarning
internetga
qaramligi
muammosidir.
Ilmiy taqiqotlarda
ko'plab fikrlar
yoshlar ma'naviy-
axloqiy evrilishlari,
ta'lim-tarbiyasidagi
salbiy holatlarga
sabab qilib internet
olamidagi, virtual
makondagi holatlar
ko'rsatilmoqda.***

o'quvchilari uchun «internet psixologiyasi» fanini o'qitishni joriy qilish; 3) ilm-fanni o'rganish orqali axborot olamini to'liq cheklay olmasligimiz, yoshlarda undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hamda uning salbiy oqibatlari qanday ijtimoiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishini tushuntirish; 4) internet saytlaridan foydalanish bo'yicha qonunchilik bazasini mustahkamlash, turli buzg'unchi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi saytlarga davlat kesimida ta'qiq qo'yish, axborotlar tarqalishini davlat tomonidan nazoratga olish va mustahkamlash; 5) axborot tarqatuvchi internet provayderlar ustidan nazoratni kuchaytirish, ular tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlarni filtrlash mexanizmini joriy qilish va undan foydalanishning mustahkam huquqiy bazasini yaratish.

Hozirgi davr yoshlarining axborot madaniyatidagi asosiy muammo sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: *birinchidan*, yoshlarning internet, ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi, jonli ijtimoiy munosabat, muloqotni virtual aloqalar bilan almashtirish holati, shaxsiy erkinlik yo'qotib, eskapistik holatga tushib qolish; *ikkinchidan*, aqlli texnologiyalar va yuqori parametrli telefonlardan foydalanish tufayli yoshlarning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi buzilishi va uning huquqiy oqibatlari ortishi; *uchinchidan*, internet orqali kiberjinoyatlar va yoshlarning turli buzg'unchi guruhlariga qo'shilishining ko'payishi va boshqalar.

Ayni damda ijtimoiy-gumanitar fan olimlari ichida eng ko'p muhokama qilinadigan muammo bu – yoshlarning internetga qaramligi muammosidir. Ilmiy taqiqotlarda ko'plab fikrlar yoshlar ma'naviy-axloqiy evrilishlari, ta'lim-tarbiyasidagi salbiy holatlarga sabab qilib internet olamidagi, virtual makondagi holatlar ko'rsatilmoqda.

Bugungi kunda global axborot–media olamidagi turli ko'rinishdagi yot g'oyalarning yoshlar ma'naviy-mafkuraviy immunitetiga salbiy ta'sirini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Jamiyatda fan yutuqlari ortishi, iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlikda ochiqlik-oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash huquqiy madaniyatning o'sishi, tezkor yangiliklar bilan tanishish, hududlarda olib borilayotgan islohotlarni kuzatishda, ma'naviy oziqlanish hamda axborot foydalanuvchilarining shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirishda internet eng samarali usul, vosita bo'lmoqda. Lekin hali hayotiy tajribasi kam, tafakkur olami rivojlanib ulgurmagan yoshlarning ma'lum qismida virtual olam o'y-xayollari bilan yashash, internetsiz hayotni tasavvur eta olmaslik, internetdagi turli axborotlarga ko'r-ko'rona ergashish, taqlid, tanqid, huquq va burchni anglamaslik xususiyatlari mamlakat ijtimoiy barqarorligi va xavfsizligi uchun eng global ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bu muammolarni quyidagicha ko'rsatish mumkin: *birinchidan*, ta'lim tizimida yoshlarning asosan internet saytidagi manbalarga tayanib qolishi,

kitob mutolaasining pasayishi, fikrlash qobiliyati darajasining susayishi va dunyoqarashi sayozlashishiga olib keladi; *ikkinchidan*, internet saytlari orqali ommaviy madaniyat ta'sirining ortib borishi milliy qadriyatlarimiz sanalgan urf-odat va an'analarga, oilaviy turmush munosabatlari, ota-onaga nisbatan munosabatlarga putur yetkazadi; *uchinchidan*, internet saytlari orqali tarqatilayotgan turli ko'rinishdagi media mahsulotlar va boshqa resurslar yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq, immuniteti sust yoshlar qatlamini yuzaga keltirib, olomon kayfiyatini uyg'otadi va eng asosiysi, yoshlarda kosmopolitik qarashlar shakllanishiga olib keladi; *to'rtinchidan*, turli ekstremistik tashkilotlar ko'lami va ta'sir doirasi kengayib, g'oyaviy ojiz yoshlar dunyoqarashi o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan, ekstremistik g'oyalar bilan qurollangan yoshlarning dunyoning notinch o'lkalariga intilishi va terrorchilik harakatlarida ishtirok etishga bo'lgan xayrixohligi ortadi; *beshinchidan*, internet axborot olamida tarqalayotgan insonlar ruhiyatiga ta'sir etuvchi norozilik namoyishlari ko'rinishidagi axborotlar o'z belgilari bilan boshqa mintaqalar va hududlarga tarqalishi orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi; *oltinchidan*, turli saytlarda tarqalayotgan axborotlarga bo'lgan taqlid va munosabatlar, davlat hokimiyatining vakillik organlariga, hukumat vakillarining qonuniy talablariga nisbatan hurmatsizlik va bo'ysunmaslik g'oyasining shakllanishiga sabab bo'ladi; *yettinchidan*, millatchilik, irqchilik, dinlararo munosabatlarning buzilishi hamda xalqlar tinchligiga raxna soladi. Hozirda boshqa mintaqalarda bo'layotgan bu jarayonlarni, internet saytlari ko'z o'ngimizda bo'layotgandek manzaralar bilan gavdalantirmoqda. Bunda ushbu illatlarning ijtimoiy va milliy xavfsizligimizga nechog'li raxna solayotgani ko'rinib turibdi.

Virtual maydonda yoshlar ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi, ongi-qalbidagi g'oyalar barqarorligining ma'lum bir shartlari mavjud. Birinchi sharti, bu–onlayn ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishdir. Bu kurash davlat va jamiyat birligida, jamoatchilik asosida, institutsional bo'lishi kerak. Bu mafkuraviy kurashning, avvalo, madaniy-huquqiy asoslarini yaratib, ularga imtiyozlar berilishi zarur. Kiberjinoyatchilik, virtual qaroqchilik, xakerlik, frikerlik hujumlariga bardoshli, axborot bo'yicha savodli shaxslar va tizimni shakllantirish-davr talabidir.

Ijtimoiy tarmoqlar dastlab muloqotda chegaralarni yengib o'tish uchun yaratilgan, ammo bugungi kunda ular boshqa ma'no va maqsadga ega. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy tarmoqlarda aloqa global darajaga ko'tarildi.

Xulosa. *Birinchidan*, global ijtimoiy-madaniy hayot (internet, ijtimoiy tarmoqlar) real dunyoni virtual dunyoga almashinilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, internet yoshlari virtual dunyoning "axloqiy

Virtual maydonda yoshlar ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi, ongi-qalbidagi g'oyalar barqarorligining ma'lum bir shartlari mavjud. Birinchi sharti, bu–onlayn ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishdir. Bu kurash davlat va jamiyat birligida, jamoatchilik asosida, institutsional bo'lishi kerak. Bu mafkuraviy kurashning, avvalo, madaniy-huquqiy asoslarini yaratib, ularga imtiyozlar berilishi zarur. Kiberjinoyatchilik, virtual qaroqchilik, xakerlik, frikerlik hujumlariga bardoshli, axborot bo'yicha savodli shaxslar va tizimni shakllantirish-davr talabidir.

kodeksi"ni yaratdilar. Real hayotdagi milliy-axloqiy qadriyatlar, jonli muloqot etikasi yo'qlikka mahkum bo'lmoqda;

ikkinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtlarida aynan internet bilan oshuftaligi turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ular vaqtning qadriga yetmaydigan, uni isrof qiladigan darajaga yetdilar. Shuning uchun vaqt va oila a'zolarining qadriga yetish uchun ular bilan diniy-ma'rifiy suhbatlarni tashkil etish zarur;

uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar faolligidan foydalanib, o'z qadriyatlarimizni turli o'yin, xabarlar, tanlov va media vositalari orqali targ'ib qilishi ancha samarali bo'lar edi. Ularning axborot savodxonligini oshirish, texnologik bilimlarni mukammallashtirish zarur;

to'rtinchidan, virtual makonda yoshlar axborot bilan ishlar ekan, ularning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi yuzaga chiqadi va noosfera realligini ifodalovchi kibermakonlarda xavfsizlik masalalari jiddiylashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Туляев А.И. Виртуал ахборот маконидаги таҳдидлар ва уларнинг олдини олиш зарурияти // *Фалсафа ва ҳуқуқ*. – №1, 2020, – Б. 165-бет
2. Низомова Раъно Азиз қизи. Глобаллашув жараёнида ёшлар интернет тармогидан фойдаланишининг статистик таҳлили. "Дунё глобаллашув жараёни ва Ўзбекистон ёшлари" мавзусидаги онлайн халқаро ёшлар илмий-амалий ва назарий конференцияси мақолалар тўплами. – Тошкент: Инновацион ривожланиш наشريёт-матбаа уйи, 2020. – Б. 132.
3. Швецова А.В., Норманская А.В. Массовая культура как проблема современного общества: общетеоретический анализ // *Вестник МГУКИ*. 6 (74) 2016. С.52.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: "Ўзбекистон" наشريёти, 2022. – 307 б.
5. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018, – 74 б.